

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**“TARBIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA
KOMPETENSIYAVIY VA QADRIYATLI
YONDASHUVLARNI JORIY ETISH
METODIKALARI”**

MODULINING

O‘QUV-USLUBIY MAJMUASI

Malaka oshirish kursi yo‘nalishi: Tarbiya

Tinglovchilar kontingenti: Akademik litseylar pedagog xodimlari

Buxoro – 2026

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 30-dekabrdagi yig'ilishida tasdiqlangan "Tarbiya" yo'nalishi bo'yicha akademik litseylar pedagog xodimlarini malakasini oshirish kursining o'quv reja va dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: **Olimov Sh.Sh.** - Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrası mudiri p.f.d., professor,
 Samiyeva Sh.X. - Buxoro davlat texnika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Taqrizchi: **Adizov B.R.** – Buxoro davlat universiteti professori, p.f.d.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.....	9
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	12
IV. AMALIY MATERIALLAR.....	35
V. GLOSSARIY.....	41
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	47

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Ishchi dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ishchi dastur doirasida berilayotgan tayanch moduli mavzulari orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarni tarbiya fanining jamiyat va shaxs rivojlanishidagi o'rnini, jamiyatda bir maqsad sari qaratilgan dunyoqarashni shakllantirish, tarbiyada ijtimoiylashuv mexanizmlari, tarbiyada ijtimoiy-psixologik qonuniyatlar va obyektiv jarayonlar bilan birgalikda o'qituvchilarning ehtiyojlari asosida tanlab olingan modullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Modulning maqsadi va vazifalari

"Tarbiya tizimini rivojlantirishda kompetensiyaviy va qadriyatli yondashuvlarni joriy etish metodikalari" modulining maqsadi o'qituvchilarning modul bo'yicha zarur kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Modulning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- o'qituvchilarning "Tarbiya tizimini rivojlantirishda kompetensiyaviy va qadriyatli yondashuvlarni joriy etish metodikalari" moduli bo'yicha kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz oshirish va rivojlantirish;

- o'qituvchilarning "Tarbiya tizimini rivojlantirishda kompetensiyaviy va qadriyatli yondashuvlarni joriy etish metodikalari" moduli bo'yicha zamonaviy talablarga mos holda akademik litseylardagi o'qitish sifati va samaradorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan kasbiy mahorat darajasini oshirish;

- o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish hamda ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

- o'quv-tarbiya jarayonini fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo‘yiladigan talablar:

Kurs yakunida tinglovchilar quyidagi yo‘nalishlarda bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- tarbiya tizimida kompetensiyalarni shakllantirish metodikalarini;
- ijtimoiy-faol, fuqarolik, kommunikativ, axloqiy, madaniy va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy ishlar mazmunini;
- tarbiya tizimi va uning zamonaviy kontsepsiyalarini;
- tarbiya tushunchasi, tizim va funksiyalarini;
- zamonaviy pedagogik yondashuvlar va shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyani;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ma‘naviy-axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, tolerantlik va ijtimoiy mas‘uliyatni shakllantirish metodikalarini;
- tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni;
- tarbiyaviy jarayonning indikatorlarni;
- tarbiyaviy ishlarning zamonaviy shakl va metodlarini;
- ta‘lim muhitida tarbiyaviy faoliyatning maqsad va vazifalarini;
- loyiha va ijtimoiy tashabbuslar, servis learning (ijtimoiy xizmat orqali o‘qitish), mentorlik, kouching, debatlar va reflektiv mashg‘ulotlar orqali tarbiyaviy kompetensiyalarni rivojlantirishni **bilishi lozim**.

Tinglovchi:

- tarbiyaviy jarayonni loyihalashda kompetensiyaviy indikatorlar va kutiladigan natijalarni belgilash;
- ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy omillarning tarbiyaga ta‘sirini o‘rganish;
- masofaviy ta‘limda tarbiyaviy jarayonni boshqarish;
- tarbiya tizimining samaradorligini baholash va monitoring qilish;
- tarbiya tizimini rivojlantirishda kompetensiyaviy va qadriyatli yondashuvlarning nazariy-pedagogik asoslarini o‘zlashtirish;
- tarbiya jarayonida o‘quvchi faolligini oshirishga qaratilgan interaktiv metodlarni qo‘llash **ko‘nikma va malakalariga** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- hamjihatlik, o‘zaro hurmat va tolerantlikni kuchaytirish;
- tarbiya jarayonida qadriyatli yondashuvni joriy etish metodlaridan foydalanish;
- tarbiyaviy faoliyatda madaniy, tarixiy va ijtimoiy kontekstni hisobga olish;
- tarbiyaviy jarayonni modellashtirish;
- axloqiy-hulqiy kompetensiyalarni rivojlantirish;
- milliy va xalqaro tajribalar asosida tarbiya strategiyalarini solishtirish;

- tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaga asoslangan va aksiologik (qadriyatlar tizimi) yondashuvlarning o'zaro uyg'unligini tahlil qilish kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.

O'QUV MODULI BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Jami	Umumiy auditoriya soati	Jumladan	
				Naza riv	Amal iy
1.	Tarbiya tizimida kompetensiyalarni shakllantirish metodikalari	4	4	2	2
2.	Tarbiya jarayonida qadriyatli yondashuvni joriy etish metodlari	4	4	2	2
3.	Akademik litseylarda tarbiyaviy ishlarning zamonaviy shakl va metodlari	2	2		2
	Jami	10	10	4	6

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

Tarbiya tizimini rivojlantirishda kompetensiyaviy va qadriyatli yondashuvlarni joriy etish metodikalari

1- mavzu: Tarbiya tizimida kompetensiyalarni shakllantirish metodikalari (2 soat nazariy).

REJA:

1. Ijtimoiy faol, fuqarolik, kommunikativ, axloqiy, madaniy va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy ishlar mazmuni.
2. Tarbiyaviy jarayonni loyihalashda kompetensiyaviy indikatorlar va kutiladigan natijalarni belgilash.

2- mavzu: Tarbiya jarayonida qadriyatli yondashuvni joriy etish metodlari (2 soat nazariy).

REJA:

1. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, tolerantlik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish metodikalari.
2. Tarbiyaviy faoliyatda madaniy, tarixiy va ijtimoiy kontekstni hisobga olish. Ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy omillarning tarbiyaga ta'siri.

3. Tarbiyaviy jarayonni modellashtirish. Tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: Tarbiya tizimida kompetensiyalarni shakllantirish metodikalari (2 soat amaliy).

REJA:

1. Tarbiya tizimi va uning zamonaviy kontseptsionalari.
2. Tarbiya tushunchasi, tizim va funksionalari.
3. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va shaxsga yo‘naltirilgan tarbiya.

2-Mavzu: Tarbiya jarayonida qadriyatli yondashuvni joriy etish metodlari (2 soat amaliy)

REJA:

1. Tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar.
2. Masofaviy ta’limda tarbiyaviy jarayonni boshqarish.
3. Tarbiya tizimining samaradorligini baholash va monitoring qilish. Tarbiyaviy jarayonning indikatorlari.
4. Axloqiy-hulqiy kompetensiyalarni rivojlantirish. Milliy va xalqaro tajribalar asosida tarbiya strategiyalarini solishtirish.

3-Mavzu: Akademik litseylarda tarbiyaviy ishlarning zamonaviy shakl va metodlari (2 soat amaliy)

REJA:

1. Loyiha va ijtimoiy tashabbuslar, servis learning (ijtimoiy xizmat orqali o‘qitish), mentorlik, kouching, debatlar va reflektiv mashg‘ulotlar orqali tarbiyaviy kompetensiyalarni rivojlantirish.
2. Tarbiya jarayonida o‘quvchi faolligini oshirishga qaratilgan interaktiv metodlar.
3. Tarbiya tizimini rivojlantirishda kompetensiyaviy va qadriyatli yondashuvlarning nazariy-pedagogik asoslari.
4. Tarbiya jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaga asoslangan va aksiologik (qadriyatlar tizimi) yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi.
5. Akademik litsey ta’lim muhitida tarbiyaviy faoliyatning maqsad va vazifalari.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston.– T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2021. - 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. «Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan iqtiboslar». – T.: “Tasvir”, 2021. - 52 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2023. - 536 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin, obod va farovon mamlakatni - Yangi O‘zbekistonni barchamiz birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2023. - 368 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. 7-jild. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2023. - 392 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2024. -344 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF 6097-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4860-sonli Qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4910-son Qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-358-son Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi “Akademik liseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risda” 296-son Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 717-son Qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-iyuldagi “2025-2026-yillarda sun’iy intellekt texnologiyalari sohasida ustuvor loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 425-son Qarori.

13. BMT. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi. 1948.

14. BMT. Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya.1989.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Zulunov R.M. Sun’iy intellekt texnologiyalari – T.: Classic, 2024.

2. Mo‘minov B.B., Sun’iy intellekt (O‘quv qo‘llanma). – T., 2023.

3. Babaxodjaeva N.M. Sun’iy intellekt va neyron to‘rli texnologiyalar. T., 2023.

4. Toirov S.S., Axmedov U.M. Axborot tizimlari va texnologiyalari (o‘quv qo‘llanma). – T.: Iqtisodiyot, 2020. – 240 b.

5. Abduraxmonov R.M. Pedagogik texnologiyalar va raqamli ta’lim muhitlari. – T.: Fan va texnologiya, 2021. – 200 b.

6. Muminova L.R, Nazarova D.A. Inklyuziv va maxsus ta’lim atamalarining izohli lug‘ati. – T., 2021.

7. Nazarova D.A, Mamarajabova Z.N. Maxsus pedagogika (Surdopedagogika). -T.: Innovatsiya-ziyo, 2020.

8. Nazarova D.A. Inklyuziv madaniyatini shakllantirishda ta’lim klasteri sub’yektlarining o‘rni. //Scientific aspects and trends in the field of scientific research. International scientific online conference.

9. Nazarova Dildora Asatovna. Issues of involving children with hearing in inclusive education.// European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE)Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No.12, December 2021,ISSN: 2660-5643/ Page 149.

10. Butterworth, J., & Mitchell, D. (2013). Inclusive Education and its Social Benefits. London: Routledge. 77-80 betlar.

11 Florian, L., & Black-Hawkins, K. (2011). Exploring Inclusive Pedagogy. British Educational Research Journal. 28-b.

12. Nazarova, D. A. (2020). "Aspects of Orientation of Students of the Professional Development Courses in the Direction 'Managers of Educational

Institutions' to the Effective Organization of Inclusive Education."European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(8), 7-12.

13. "Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent shahri. 2021-yil 26-mart.- 335 b.

14 G. B. Saidnazarova Tarbiya fanini o'qitish metodikasi bo'yicha o'quv qo'llanma. – Buxoro: "Kamolot", 2024.

15. Olimov Sh.Sh. Pedagogik texnologiyalar. - T.: "Universitet", 2020. – 172-177 b.

16. Xodjayev B., Sattorov Sh., Artikova M. Tarbiya fanini o'qitish texnologiyalari. -T.: Respublika ta'lim markazi, 2021.

17. M.To'xliyev, A.Tilavov. Tarbiya kitobi. "Yurist - media markazi". 2017.

18. Xalikov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. – T.: Iqtisod moliya, 2012.

IV. Elektron ta'lim resurslari

1. <http://natlib.uz>

2. <http://yedu.uz>


3. <http://lex.uz>

4. <http://lib.bimm.uz>

5. <http://ziyonet.uz>

II. FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

Loyiha ishini bajarish bosqichlari



Loyiha ishining afzalliklari

o'quvchi mustaqil ravishda ma'lumot izlaydi

o'z bilimini amalda qanday qo'llashni anglaydi



muayyan muammoni mustaqil ravishda hal qilishni o'rganadi

qaysi mavzuni o'rganishni o'zi belgilashi mumkin

muayyan ko'nikma va kompetensiyalar rivojlanadi


Loyiha ishini bajarishda qo'llaniladigan metod va usullar

ma'lumot olish metodlari

- kuzatish
- tajriba
- o'lchash
- taqqoslash
- intervyu;
- tahlil qilish va boshqalar

ma'lumotlarni qayd etish usullari

- diagramma, grafik, sxema
- jadval
- xarita
- fotosurat, audio va video materiallar
- Model, prototip va boshqalar





«Qadamma-qadam» treningi. Mashg'ulot «qadamma-qadam» usuli asosida tashkil etiladi, ya'ni mashg'ulot davomida amalga oshirilishi kerak bo'lgan har bir ish bir qadam deb olinadi va har bir qadamda o'quvchilar biron-bir faoliyatda ishtirok etadilar yoki biron-bir ish bajaradilar.

«Ma'naviy jihatdan boy inson bilan moddiy boy inson o'rtasiga «Xitoy devori» qo'yish to'g'ri emas. Moddiy boy inson ma'naviy jihatdan qashshoq yo, aksincha, ma'naviy jihatdan yetuk kishining moddiy muhtojligi ko'proq bo'lishi mumkin. Agar bir shaxsda buning ikkalasi ham shakllangan bo'lsa – yaxshi. Lekin moddiy boy insonning ma'naviy qashshoqligi yomon oqibatlariga olib kelishi hech gap emas».

Keys topshiriqlarini bajarishda qo'llaniladigan tahlil (analiz) turlari

T.r.	Turlari	Tavsifi	Namoyon bo'lish shakli
1.	Muammoli tahlil	Muammolarni ajratish; muammolar ko'lami va ularning tasnifini shakllantirish	Vaziyatning muammoli jihatlarini tahlil qilish; vaziyatning muammoli shartlarini tahlil qilish; vaziyatning muammoli oqibatlarini tahlil qilish
2.	Tizimli tahlil	Obyektni tizimli yondashuv pozitsiyasidan o'z strukturasi va funksiyalariga ega tizim sifatida ko'rib chiqish	Deskript analiz: mavjud tuzilma asosida funksiyalarni shakllantirish; konstruktiv analiz: mavjud funksiyalar asosida tuzilma shakllantiriladi
3.	Prakseologik tahlil	Faoliyatli jarayonlarni ularni optimallashtirish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish	Faoliyatni optimallashtirish usullarini analiz qilish; faoliyatni modellashtirish va algoritmallashtirish
4.	Prognostik tahlil	Vaziyatning keyingi rivojiga nisbatan farazlar keltirish	Normativ prognostik analiz; konseptual prognostik analiz



Ishchanlik o'yini ssenariysi quyidagilardan iborat: faoliyat maqsadi; o'yin vazifasi, o'rganiladigan muammo tafsiloti; vaziyatning tafsiloti va ishtirok etuvchilarning tasnifi. O'yinga kirishish quyidagilarni anglatadi:



– guruhni shakllantirish;

– mashg'ulotlarning bosh maqsadini ifodalash;

– muammo va vaziyatni vujudga keltirish;

– rollarni taqsimlash;

– o'yin reglamentini o'rnatish;

– materiallar, yo'riqnomalar, qoidalar
va ko'rsatmalar to'plamini tarqatish;

– maslahatlar berish.

Rollar qur'a tashlash yo'li bilan taqsimlanadi. Reglamentga, muloqot etikasiga, faollikni namoyish etishga va o'yinning oxirigacha ishtirok etilishiga alohida e'tibor qaratiladi.

“KEYS” METODI

Keys - ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan, aniq muammoli vaziyatning tafsilotidir. Keys metodi ishlab chiqarish masalalarini mashg'ulotlarda tahlil qilish va hal qilish metodi hisoblanadi. Unda ishtirokchilarga haqiqiy hayotiy vaziyat bo'yicha fikr yuritish taklif qilinadi, bu vaziyat bayonida faqat amaliy masala ifodalanib qolmasdan, undagi muammoni yechish jarayonida o'zlashtirilishi zarur bo'lgan o'quv material ham ifodalanadi.

Keys metodini qo'llash jarayonida tinglovchilarni vaziyatni tahlil qilishga o'rgatish maqsadida, vaziyatni quyidagi tartibda bayon qilish mumkin:

- muammoli (qo'yilgan muammo bo'yicha muammoli vaziyatlar majmuasini ajratish talab qilinib, ularning turlari, yechilish metodlariga muvofiq holda tanlanadi);
- tizimli (vaziyatlar tarkibining tavsiflari va vazifalarini aniqlash);
- sabab-oqibatli (vaziyatni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash);
- tavsiyali (vaziyatni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash);
- dasturiy-maqsadli (joriy vaziyatlar uchun tadbirlar dasturini ishlab chiqish);
- tashhisli (vaziyatdagi faoliyat mazmunini tashhislash, uni modellash).

O'quv mashg'ulotlarida keyslarni hal qilish algoritmi quyidagicha:

1. Topshiriqni berish (topshiriqni bajarish muddatini belgilash, keysning yechimini baholash tizimi bilan tanishtirish, mashg'ulotning texnologik modelini aniqlash).
2. Ta'lim beruvchining kirish so'zi. Asosiy savollarning qo'yilishi.
3. Tinglovchilarni 4-6 kishidan iborat mikroguruhlariga ajratish.
4. Ularning mikroguruhlardagi faoliyatini tashkil qilish (mikroguruhlarni nomlash, yetakchilarni va ekspert guruhini aniqlash).
5. Mikroguruhlardagi javoblar bilan tanishishini tashkil qilish.
6. Mikroguruhlararo munozarani tashkil qilish.
7. Ta'lim beruvchining umumlashtiruvchi so'zi, uning vaziyat yechimi to'g'risidagi fikri.
8. Tinglovchilarning ekspertlar tomonidan baholanishi.
9. Tinglovchilarning mashg'ulot haqidagi fikrlari.
10. Ta'lim beruvchining yakunlovchi so'zi. Mashg'ulot bo'yicha hulosalar chiqarish.

Keyslarni hal qilishda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchi-tinglovchilarni yo'naltirib turishi va ulardagi faollikni qo'llashi, hal qilinayotgan muammoga nisbatan qiziqish uyg'otib turishi darkor.

Keyslar o'z mazmuniga qarab - mikrokeys, minikeys va umumiy keyslarga, maqsadi bo'yicha taktik, strategik keyslar kabi turlarga bo'linadi.

Keyslardan ta'lim jarayonida foydalanish tinglovchilar shaxsida quyidagi kasbiy-andragogik zaruriy sifatlarni shakllantiradi:

- mustaqil, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;
- haqqoniy bo'lishiga o'rgatadi;
- nazariya va amaliyot o'rtasida uzviy bog'liqlikni shakllantiradi;
- muammoli vaziyatni yangicha shakllantirishga yordam beradi;
- vaziyatlarni hal etishda, unga tasir etuvchi omillarning mavjudligi va ularning ta'sirini e'tiborga olishga imkon beradi;
- boshqalar fikrini ham qabul qila olish malakasini shakllantiradi;
- savol berish madaniyatini tarkib toptiradi;
- qabul qilingan qaror uchun mas'ullik hissini tarbiyalaydi.

Keyslardan yakka tartibda, mikroguruhlarda va so'ngra umumiy guruhda muhokama, rolli o'yinlar va h.k.da foydalanish mumkin.

Jahon andragogikasida keng miqyosda samarali qo'llanayotgan keyslardan foydalanish - birinchidan, ta'lim oluvchi-tinglovchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, ikkinchidan esa, o'quv jarayonini bevosita ishlab chiqarish bilan bog'laydi, Gerbart Spenser ta'kidlaganidek: «Ta'limning buyuk maqsadi bilim berish emas, balki xatti-harakatlarga o'rgatishdir» Yoxud, mavjud ta'lim tizimimizda aksariyat hollarda ta'lim berishdan maqsad, bilim berish yakuniy natija sifatida qaralsa, jahon miqyosida esa, o'zlashtirilgan bilimlarni amalda qo'llash ta'limning yakuniy natijasi deb qaralishini e'tirof etish lozim. Garvard (AKSH) universiteta moliyaviy menejment mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan magistrantlar o'qish davrida, banklarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan

2,5 mingta keysga javob topgandan so'ngina, diplom olish huquqiga ega bo'lishi fikrimizning dalilidir.

Keyslarni hal qilishda quyidagilarga e'tibor berish zarur: asosiy muammoni va unga ta'sir etuvchi omillarni; aniqlash, asosiy va ikkinchi darajali omillarni ajratish, muammoni hal qilishning muqobil yechimini ham ko'rib chiqish, eng maqbul qaror qabul qilish. Keyslarni hal qilishda yozma metodda taxlil qilish, unda etilgan muammoni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-Mavzu: Tarbiya tizimida kompetensiyalarni shakllantirish metodikalari (2 soat nazariy).

REJA:

1. Ijtimoiy faol, fuqarolik, kommunikativ, axloqiy, madaniy va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy ishlar mazmuni.
2. Tarbiyaviy jarayonni loyihalashda kompetensiyaviy indikatorlar va kutiladigan natijalarni belgilash.

Tayanch soʻz va iboralar: kompetensiya, tarbiya, bilim, model, taʼlim, fan, rivojlanish.

XXI asr – axborot va texnologiyalar asri sifatida jamiyatdan taʼlim-tarbiya tizimiga yangicha talablar qoʻymoqda. Anʼanaviy bilim berish modeli endi zamonaviy hayot ehtiyojlarini toʻliq qondira olmaydi. Bugungi kunda shunchaki bilimli emas, balki bu bilimlarni hayotda qoʻllay oladigan, muammolarni mustaqil hal qila oladigan, ijtimoiy faol va masʼuliyatli shaxslarni tarbiyalash zarur.

Aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda jahon taʼlim-tarbiya amaliyotida kompetensiyaviy yondashuv keng qoʻllanila boshlandi. Bu yondashuv taʼlim va tarbiya jarayonining markaziga bilimlarni amalda qoʻllash qobiliyatini, hayotiy koʻnikmalarni va shaxsiy fazilatlarni qoʻyadi.

Oʻzbekiston Respublikasida ham taʼlim tizimini isloh qilish doirasida kompetensiyaviy yondashuvga alohida eʼtibor qaratilmoqda. 2019-yil 29-apreldagi PQ-4307-son "Oliy taʼlim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi Qarori hamda 2020-yil 6-maydagi PQ-4708-son "Xalq taʼlimi tizimini boshqarish samaradorligini oshirish va sifatli taʼlim xizmatlarini koʻrsatish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi Qarorlarida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish ustuvor yoʻnalishlardan biri etib belgilangan.

Kompetensiya (lotincha competentia – muvofiqlash, mos kelish) – shaxsning muayyan sohadagi bilim, koʻnikma va malakalarining, shuningdek, shaxsiy

fazilatlarining yig'indisi bo'lib, u kishiga ma'lum vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish imkonini beradi.

Kompetensiya quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

Bilimlar (kognitiv komponent) – nazariy ma'lumotlar, tushunchalar, qonuniyatlar;

Ko'nikmalar (operatsion komponent) – amaliy ish usullari, texnikalar;

Malakalar (faoliyat komponenti) – avtomatizmga yetgan, mustahkamlangan amallar;

Motivatsiya (motivatsion komponent) – faoliyatga ichki undov;

Shaxsiy fazilatlari (shaxsiy komponent) – axloqiy, iroda sifatlari, qadriyat yo'nalishi.

Kompetentlik – shaxsning kompetensiyalarga egaligi darajasi, ya'ni muayyan faoliyat sohasida yuqori malaka va tajribaga ega bo'lish holati.

Kompetensiya va kompetentlikning farqi:

Kompetensiya Kompetentlik Jamiyat tomonidan belgilanadigan talablar to'plami Shaxsning shu talablarga javob berish darajasi Normativ (nimani bilishi/qila olishi KERAK) Individual (nimani biladi/qila OLADI) Potensial imkoniyat Real natija

Misol: Pedagog uchun "tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish kompetensiyasi" talab qilinadi. Ayrim pedagog bu kompetensiyani yuqori darajada egallab, kompetent bo'lishi mumkin, boshqasi esa boshlang'ich darajada.

Kompetensiyalarning asosiy xususiyatlari:

Integrativlik – turli bilim, ko'nikma va fazilatlarni birlashtiradi

Amaliyotga yo'nalganlik – real hayot vaziyatlarida qo'llaniladi

Rivojlanish qobiliyati – hayot davomida shakllana va takomillasha boradi

Kontekstuallik – ma'lum vaziyat va sharoitga bog'liq

Komplekslik – bir vaqtning o'zida bir necha jihatlarni qamrab oladi

1. Kompetensiyaviy Yondashuvning paydo bo'lishi (1960-1970-yillar)

Kompetensiyaviy yondashuv g'oyalari XX asrning 60-yillarida AQSHda paydo bo'ldi. 1965-yilda N. Chomsky tilshunoslik sohasida lingvistik kompetensiya

tushunchasini kiritdi. 1973-yilda amerikalik psixolog D. McClelland "Qobiliyatlarni sinashdan ko'ra, kompetensiyani sinash yaxshiroq" maqolasida kompetensiya tushunchasini kadrlar boshqaruviga kiritdi.

2. Ta'limda qo'llanilishi (1980-1990-yillar)

1980-yillarda kompetensiyaviy yondashuv ta'lim sohasiga kirib keldi. 1984-yilda J. Raven "Kompetentlik zamonaviy jamiyatda" asarida ijtimoiy kompetensiyalar kontseptsiyasini ishlab chiqdi. U 37 xil kompetensiyani ta'rifladi.

1990-yillarda Yevropa mamlakatlari ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda ushbu yondashuvni faol joriy eta boshladilar.

3. Xalqaro standartlashtirish (2000-yillardan hozirgi kungacha)

2006-yil – Yevropa Parlamenti va Kengashi "Hayot davomida ta'lim olish uchun kalit kompetensiyalar" haqidagi Tavsiyasini qabul qildi. Unda 8 ta kalit kompetensiya belgilandi:

Ona tili va xorijiy tillar bo'yicha kommunikativ kompetensiya

Matematik va fan-texnika sohasidagi kompetensiya

Raqamli (IT) kompetensiya

O'rganishni o'rganish kompetensiyasi

Ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalari

Tashabbus va tadbirkorlik kompetensiyasi

Madaniy anglash va ifoda etish kompetensiyasi

Ekologik kompetensiya (keyinchalik qo'shilgan)

UNESCO ham ta'lim-tarbiya jarayonida to'rtta asosiy ustunni belgiladi (J. Delors hisoboti, 1996):

Bilishni o'rganish (learning to know)

Qilishni o'rganish (learning to do)

Birga yashashni o'rganish (learning to live together)

O'z shaxsini rivojlantirishni o'rganish (learning to be)

O'zbekistonda kompetensiyaviy yondashuv 2017-yildan boshlab faol joriy etila boshlandi:

2017-yil – Umumiy o'rta ta'lim Davlat ta'lim standartlari (DTS) kompetensiyaviy asosda qayta ishlab chiqildi

2019-2020-yillar – Oliy ta'lim standartlari yangilandi

Hozirgi vaqtda – Barcha ta'lim darajalari uchun kompetensiyalar tizimi ishlab chiqilmoqda.

Tarbiya jarayonida shakllaniladigan kompetensiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

A) Shaxsiy kompetensiyalar.

B) Ijtimoiy kompetensiyalar

C) Fuqarolik kompetensiyalari

D) Amaliy (funksional) kompetensiyalar

Faoliyat tamoyili – kompetensiyalar faqat amaliy faoliyat jarayonida shakllanadi

Muammoli yondashuv – real hayotiy vaziyatlar va muammolardan foydalanish

Shaxsga yo'nalganlik – har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish

Bosqichlilik – kompetensiyalar bosqichma-bosqich, murakkablik darajasini oshirib rivojlantiriladi

Integratsiya – turli tarbiya yo'nalishlari va fanlarni bog'lash

Refleksivlik – o'quvchilarni o'z faoliyatini tahlil qilishga o'rgatish

Hamkorlik – o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik muhitini yaratishdan iborat.

An'anaviy yondashuvda tarbiya maqsadlari ko'pincha umumiy va abstrakt tarzda ifodalanadi: "axloqiy tarbiya berish", "vatanparvarlikni shakllantirish" kabi.

Kompetensiyaviy yondashuvda maqsadlar aniq, o'lchanadigan va kuzatiladigan holda qo'yiladi:

Misol (noto'g'ri): O'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash.

Misol (to'g'ri): Mashg'ulot yakunida o'quvchilar:

O'zbekiston tarixining muhim voqealarini sanab beradi (bilim)

Milliy ramzlar (bayroq, madhiya, gerb) ma'nosini tushuntira oladi (tushunish)
Vatan taraqqiyotiga o'z hissasini qanday qo'shish mumkinligini loyihalaydi (tatbiq etish)

Vatanparvarlik namoyon bo'lgan holatlarga baho bera oladi (tahlil)

Kompetensiyaviy yondashuv asosida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda quyidagi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:

Interaktiv metodlar:

Munozara – tanqidiy fikrlash, kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi

Rol o'yinlari – ijtimoiy kompetensiyalar, empatiya shakllanadi

Loyihalar metodi – muammolarni hal qilish, hamkorlik, ijodkorlik kompetensiyalari

Kichik guruhlarda ishlash – jamoa kompetensiyasi

Tanqidiy fikrlash (RWCT) texnologiyalari – tanqidiy tahlil qobiliyati

Keys-stadi – real vaziyatlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish kompetensiyasi

Faol ta'lim usullari:

Trening mashg'ulotlar – amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash

Master-klasslar – tajriba almashish va o'rganish

Ekskursiyalar va sarguzashtlar – amaliy bilim va tajriba

Ko'rgazmali tadbirlar – ijodiy kompetensiyalar

Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim mazmuniga yangicha qarashni talab qiladi. Mazmun nafaqat bilimlar, balki ularni qo'llash ko'nikmalari va shaxsiy fazilatlarini ham o'z ichiga olishi kerak.

Kompetensiyaviy yondashuv har bir o'quvchining o'ziga xos rivojlanish yo'lini ta'minlaydi:

Diagnostika – boshlang'ich kompetensiya darajasini aniqlash

Differentsiatsiya – turli qobiliyatdagi o'quvchilar uchun vazifalar

Individual marshrut – har bir o'quvchi uchun shaxsiy rivojlanish rejasi

Portfolio – shaxsiy yutuqlarni to'plash va tahlil qilish

Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish uchun avvalo pedagogning o'zi yuqori kompetent bo'lishi zarur.

Pedagogning kasbiy-tarbiyaviy kompetensiyalari

1. Psixologik-pedagogik kompetensiya
2. Metodikkompetensiya
3. Kommunikativ kompetensiya
4. Refleksiv kompetensiya
5. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) kompetensiyasi
6. Tadqiqotchilik kompetensiyasi

Pedagogning shaxsiy kompetensiyalari

Axloqiy-ma'naviy fazilatlar – adolat, halollik, mas'uliyat, mehriban bo'lish

Hissiy barqarorlik – stress bardoshlik, sabr-toqat

Ijodiy yondashuv – g'oyalarni izlash, noan'anaviy yechimlar topish

Liderlik sifatlari – tashabbuskorlik, jamoani boshqarish

Doimiy rivojlanishga intilish – o'z-o'zini takomillashtirish

Pedagogning kompetensiyasini rivojlantirish uchun:

Malaka oshirish kurslari – muntazam qayta tayyorgarlik

O'z-o'zini ta'lim qilish – kitoblar, maqolalar, vebinarlar

Tajriba almashish – ochiq darslar, master-klasslar, konferensiyalar

Mentorlik – tajribali pedagoglardan saboq olish

Pedagogik amaliyot – yangi texnologiyalarni sinash

Refleksiya – o'z faoliyatini doimo tahlil qilish

Professional hamjamiyatlar – metodob'yedinenialar, ijodiy guruhlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Kompetensiyaviy yondashuv – bu zamonaviy tarbiyaning asosi bo'lib, u an'anaviy bilim berish modelidan shaxsni kompleks rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi paradigmaga o'tishni ta'minlaydi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Kompetensiya va kompetentlik tushunchalarini taqqoslang. Ularning o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsating.
2. Kompetensiyaviy yondashuvning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini qisqacha bayon eting.
3. Yevropa Kengashi tomonidan belgilangan 8 ta kalit kompetensiyani sanab o'ting va ulardan 3 tasining mohiyatini tushuntiring.
4. Tarbiyaviy kompetensiyalarning asosiy yo'nalishlarini (shaxsiy, ijtimoiy, fuqarolik, amaliy) misollar bilan tushuntiring.
5. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tarbiyaviy maqsadlarni qanday to'g'ri shakllantirish kerak? Misol keltiring.
6. Kompetensiyalarni shakllantirish uchun qaysi interaktiv metodlar samarali? Kamida 4 ta metodni nomlang va qisqacha tavsiflang.
7. Pedagogning kasbiy-tarbiyaviy kompetensiyalarini sanab o'ting. Ulardan eng muhimi qaysi biri deb hisoblaysiz va nima uchun?
8. Kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlarini qanday hisobga olish mumkin?
9. An'anaviy (bilimga asoslangan) va kompetensiyaviy yondashuvlarning asosiy farqlarini 3-4 ta jihatdan taqqoslang.
10. Kompetensiyaviy yondashuvni tarbiya jarayoniga joriy etishning qanday qiyinchiliklari bo'lishi mumkin va ularni qanday bartaraf etish kerak?

2-Mavzu: : Tarbiya jarayonida qadriyatli yondashuvni joriy etish metodlari (2 soat nazariy).

REJA:

1. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, tolerantlik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish metodikalari.

2. Tarbiyaviy faoliyatda madaniy, tarixiy va ijtimoiy kontekstni hisobga olish. Ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy omillarning tarbiyaga ta'siri.

Tayanch soʻz va iboralar: tarbiya, qadriyat, yondashuv, metod, ibrat, namuna.

Tarbiya jarayonining eng muhim vazifalaridan biri – yosh avlodda to'g'ri qadriyatlar tizimini shakllantirish, ularni yuksak ma'naviy-axloqiy ideallar asosida voyaga yetkazirishdir. Qadriyatlar – bu insonning hayotiy yo'nalishi, xulq-atvori va qarorlarini belgilovchi ichki me'zon va tamoyillardir.

Zamonaviy dunyoda globallashuv, axborot oqimining kuchayishi, turli madaniyatlarning to'qnashuvi sharoitida qadriyatlar tarbiyasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlar turli g'oyalar, qadriyatlar va hayot uslublariga duch kelmoqda. Shu sababli, ularning ongida mustahkam, ijobiy qadriyatlar tizimini shakllantirish davr talabi hisoblanadi.

Qadriyatli yondashuv – bu tarbiya jarayonini qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan metodologik yo'nalish bo'lib, u shaxsning ichki dunyosini boyitish, uning ma'naviy yuksalishini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2019-yil 29-apreldagi PQ-4307-son qarori, 2020-yil 24-yanvardagi PF-5938-son "O'zbekiston Respublikasi yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni kabi hujjatlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida yosh avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Qadriyat (lot. valor – qiymat, ahamiyat) – inson yoki jamiyat uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan material va ma'naviy narsalar, g'oyalar, tamoyillar, ideal va me'yorlardir.

Qadriyatlar quyidagi belgilarga ega:

Subyektivlik – har bir inson yoki jamiyat uchun turlicha ahamiyatga ega

Ierarxiklik – qadriyatlar tizimida pastdan yuqoriga tartiblanadi

Tarixiylik – vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin

Madaniy belgilanganlik – madaniyat va jamiyat ta'sirida shakllanadi

Motivatsion xususiyat – inson xulq-atvorini yo'naltiradi

Qadriyatlar turli asoslarda tasniflanadi:

A) Mazmuni bo'yicha:

Material qadriyatlar – moddiy boyliklar, mulk, to'yimlilik

Ma'naviy qadriyatlar – axloq, bilim, san'at, din, adolat

Ijtimoiy qadriyatlar – oila, do'stlik, hamkorlik, jamiyat

B) Miqyosi bo'yicha:

Shaxsiy qadriyatlar – individual, har bir inson uchun xos

Guruh qadriyatlari – ma'lum jamoa, guruh uchun umumiy

Milliy qadriyatlar – xalq, millat uchun muqaddas

Umuminsoniy qadriyatlar – barcha insoniyat uchun umumiy

C) Funksiyasi bo'yicha:

Terminal qadriyatlar – yakuniy maqsadlar (baxt, erkinlik, oila)

Instrumental qadriyatlar – maqsadga erishish vositalari (mehnatsevarlik, halollik, mas'uliyat)

Qadriyatli yondashuv – bu tarbiya jarayonini o'quvchilar ongida ijobiy qadriyatlar tizimini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan metodologik printsipdir.

Qadriyatli yondashuvning asosiy tamoyillari:

Insonparvarlik – har bir shaxsning qadr-qimmati va huquqlarini tan olish

Ma'naviyatga yo'nalganlik – ma'naviy qadriyatlarni birinchi o'ringa qo'yish

Madaniyatga muvofiqlik – milliy va umuminsoniy madaniyat asosida tarbiya

Faoliyatli yondashuv – qadriyatlar amaliy faoliyatda namoyon bo'ladi

Shaxsiy ma'nolilik – qadriyatlar shaxs uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo'lishi kerak

Umuminsoniy qadriyatlar – bu barcha xalqlar, madaniyatlar va davlatlar uchun umumiy bo'lgan, insoniyatning ma'naviy xazinasini tashkil etuvchi qadriyatlardir.

Asosiy umuminsoniy qadriyatlar:

1. Hayot va inson qadr-qimmati

Har bir inson hayoti muqaddasligi
Inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish
Insonparvarlik va mehr-shafqat

2. Haqiqat va to'g'rilik
Chin-rostlik va halollik
Ilmiy bilim va ma'rifat
Haqiqatni izlash va himoya qilish

3. Yaxshilik va ezgulik
Yaxshi ishlar qilishga intilish
Boshqalarga yordam berish
Xayrixohlik va saxiylik

4. Go'zallik
Tabiat go'zalligi
San'at va ijodkorlik
Ichki (ruhiy) go'zallik

5. Erkinlik va adolat
Shaxsiy erkinlik
Ijtimoiy tenglik
Adolatli jamiyat

6. Tinchlik va hamkorlik
Tinch hayot
Xalqlar do'stligi
Bag'rikenglik va tolerantlik

7. Oila va avlod davomiyligi

Oilaviy qadriyatlar
Ota-onalarga hurmat
Bolalarga g'amxo'rlik

8. Mehnat va ijod
Mehnatni hurmat qilish
Ijodkorlik va yangilik
Faollik va mas'uliyat

Milliy qadriyatlar – bu ma'lum xalq, millat tarixan shakllantirgan, avloddan-avlodga o'tkazib kelingan, milliy o'ziga xoslikni belgilovchi ma'naviy boyliklardir. O'zbek xalqining milliy qadriyatlari:

1. Vatanparvarlik
2. Oila muqaddasligi
3. Keksalarni hurmat qilish
4. Mehnatsevarlik
5. Mehmondo'stlik
6. Ma'naviy poklik
7. Ilm-ma'rifatga intilish
8. Birlik va birdamlik

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini to'ldiradi:

Umumiylik: Ko'pgina milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlarning milliy ko'rinishi (masalan: mehmondo'stlik – umuminsoniy insonparvarlikning milliy shakli)

O'ziga xoslik: Har bir millat umuminsoniy qadriyatlarni o'z madaniy xususiyatlari bilan boyitadi

Uyg'unlik: O'zbek milliy qadriyatlari umuminsoniy qadriyatlarga zid emas, balki ularni qo'llab-quvvatlaydi

Xalq pedagogikasi – xalqning asrlar davomida to'plagan tarbiyaviy tajribasi, bilim va donolik yig'indisi bo'lib, u og'zaki ijodda (maqollar, hikmatlar, ertaklar, qo'shiqlar), urf-odat va an'analarda ifodalangan.

4.2. Xalq pedagogikasining vositalari

1. Maqol va matallar

Xalq maqollari – qisqa, lo'nda, ta'sirli iboralar bo'lib, hayotiy tajriba va axloqiy me'yorlarni ifodalaydi:

Mehnat haqida:

"Mehnatdan – hayot, dangasalikdan – odat"

"Ishchi qo'l – oltin qo'l"

Bilim haqida:

"Bilim – daraxt, amal – meva"

"Kitob – donishmandning qurol-yarog'i"

Oila haqida:

"Oilasiz odam – uyasiz qush"

"Ona mehri – dengiz, ota mehri – ko'l"

Axloq haqida:

"Yaxshilik qil, yomonlik ko'rma"

"Ростлик – олтин, ёлғончилик – жон душмани"

2. Ertaklar

Ertaklar orqali bolalar yaxshilik-yomonlik, adolat-zulm, mehr-nafrat kabi qadriyatlarni farqlashni o'rganadilar.

Masalan:

"Tarvuz bilan qovoq" – halollik va yolg'onchilik

"Zumrad va Qimmat" – mehr va sadoqat

"Oshiq G'arib va Shohsanam" – sevgi va fidokorlik

3. Dostonlar va qissalar

Xalq dostonlari milliy qahramonlar obrazi orqali vatanparvarlik, jasorat va insonparvarlik qadriyatlarini singdiradi:

"Alpomish" – vatan himoyasi, jasorat

"Gorogli" – zulm ustidan adolat g'alabasi

"Yusuf va Zulayxo" – poklik va sabr-toqat

4. Jomboy usuli (hadislar)

Sharq mutafakkirlarining hikmatli so'zlari:

Alisher Navoiy: "Kishilik degan – boshqa kishilarning kishiligini qilish"

Abdulla Avloniy: "Bilib turib amal qilmasang, bilmagan manglaydir"

5. Urf-odat va marosimlar

Beshik to'yi, sunnat to'yi – avlod davomiyligi qadriyati

Hashar – yordamlashuv va hamkorlik

Katta-kichikka hurmat – odobli muomala

Gap – er-xotinlarning hayotiy kengashi

Qadriyaviy yondashuv asosida tarbiya maqsadlarini quyidagicha shakllantirish mumkin:

Umumiy maqsad: O'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirish.

Xususiyl maqsadlar:

Kognitiv maqsadlar:

Qadriyatli yondashuv – zamonaviy tarbiyaning ma'naviy asosi bo'lib, u shaxsning ichki dunyosini boyitish, uning hayotiy yo'nalishini belgilovchi qadriyatlar tizimini shakllantirish vazifasini bajaradi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Qadriyat va qadriyatli yondashuv tushunchalarini ta'riflang. Qadriyatlarning asosiy belgilarini sanab bering.
2. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro munosabati qanday? Ular bir-birini qanday to'ldiradi? Misollar keltiring.
3. O'zbek xalqining asosiy milliy qadriyatlarini (kamida 5 ta) sanab o'ting va har birini qisqacha tushuntiring.
4. Interiorizatsiya jarayoni nima? Uning 5 bosqichini ketma-ketlikda izohlang va har bir bosqichga misol keltiring.
5. Qadriyatlarni shakllantirish asosiy omillari qaysilar? Oila, ta'lim muassasasi va ijtimoiy muhitning har birining roli qanday?
6. O'zbek xalq pedagogikasining qadriyatlar tarbiyasidagi o'rnini tushuntiring. Xalq maqollari va ertaklaridan misollar keltiring.
7. Qadriyaviy tarbiyada qo'llaniladigan zamonaviy interaktiv metodlarni (kamida 3 ta) nomlang va qisqacha tavsiflang.
8. Qadriyatlarning tarbiyalanganligini baholash qanday amalga oshiriladi? Qaysi usullar eng samarali hisoblanadi?
9. Buyuk mutafakkirlar (Forobiy, Ibn Sino, Navoiy, Fitrat)ning qadriyatlar haqidagi asosiy g'oyalarini qisqacha bayon eting.
10. Zamonaviy sharoitda (globallashuv, texnologiyalar rivoji) milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish uchun qanday chora-tadbirlar zarur deb hisoblaysiz?

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg'ulot: Tarbiya tizimida kompetensiyalarni shakllantirish metodikalari

(2 soat amaliy)


REJA:

1. Tarbiya tizimi va uning zamonaviy kontseptsiyalari.
2. Tarbiya tushunchasi, tizim va funksiyalari.
3. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va shaxsga yo'naltirilgan tarbiya.

Mashg'ulotning borishi

I. “Tarbiya” fanining mazmuni va uni loyiha usulida o‘qitish ” mavzusida “Qarorlar qabul qilish texnologiyasi” grafik organayzeri yordamida bahs-munozara tashkil etish.

Tinglovchilarga quyidagi ish qog'ozi taqdim etiladi:



Qadamba-qadam metodi

Trening maqsadi: tinglovchilarning etik savodxonligini tekshirish. Treningdan kutiladigan natija: tinglovchilar bir-biriga qarama-qarshi so'zlarni topish orqali yaxshi, iliq so'zlar va unga qarama-qarshi bo'lgan sovuq, yomon so'zlar bilan tanishadilar, ularning hyotdagi o'rnini aniqlaydilar, bu so'zlarni o'z faoliyaglarida qo'llash darajasini belgilaydilar. Mashgulotni o'tkazish tartibi. Mashg'ulot «qadamba-qadam» usuli asosida tashkil etiladi. Ya'ni mashg'ulot davomida amalga oshirilishi kerak bo'lgan har bir ish bir qadam deb olinadi va har

bir qadamda tinglovchilar biron-bir faoliyatda ishtirok etadilar yoki biron-bir ish bajaradilar. Misol tariqasida, «Bir-biriga qarama-qarshi ma'noli so'zlarni ayt» mavzusidagi tarbiyaviy mashg'ulotni o'tkazish gartibini keltiramiz:

1-qadam - tinglovchilar tarbiyachi tomonidan tarkatma materialda yozilgan so'zlarni diqqat bilan ukib chikishlari va xar bir so'zning karshisiga axamiyati buyicha qarama-qarshibulgan so'zlarni yozishlari zarur: Yaxshilik - Raxmdillik - Mas'uliyag - Xaqqoniylik - Ziyraklik - Saxovat - Erkinlik - Adolat –

2-qadam - tinglovchilardan har bir so'zga ta'rif berishi talab qilinadi.

3-qadam - guruhdarga bo'linib, keltirilgan so'zlar ishtirokida hikoya yoki ertak tuzish tavsiya etiladi.

4-qadam — guruhlarda bir-birlarining hikoyalari (ertaklari) yuzasidan savol-javoblar o'tkaziladi.

5-qadam — guruh ishlari o'zaro baholanadi.

6-qadam — tarbiyachi mashg'ulotni yakunlaydi

2-Mavzu: Tarbiya jarayonida qadriyatli yondashuvni joriy etish metodlari (2 soat amaliy)

REJA:

1. Tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar.
2. Masofaviy ta'limda tarbiyaviy jarayonni boshqarish.
3. Tarbiya tizimining samaradorligini baholash va monitoring qilish.
Tarbiyaviy jarayonning indikatorlari.
4. Axloqiy-hulqiy kompetensiyalarni rivojlantirish. Milliy va xalqaro tajribalar asosida tarbiya strategiyalarini solishtirish.

Tarbiyada ibrat-numana ko'rsatishning tutgan o'rni

Farzandlarimizning kelajakda komil inson bo'lib yetishishlarida oila va jamiyatda yaxshi tarbiya olishning o'rni beqiyosdir. Ota-ona, ustoz-murabbiylar, rahbar va yoshi kattalar qancha madaniyatli, odobli bo'lsa, shu jamiyat va muhitda o'sayotgan shaxslar ham shunchalik odobli bo'lib yetishadi. Bunday sermas'uliyat ijtimoiy ishni amalga oshirish, ya'ni yoshlarimizning odobli, xushxulqli, vijdoni pok kishilar bo'lib yetishishlari uchun o'z xulq-atvorimiz bilan ularga yaxshi ibrat va namuna bo'lishimiz bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Ilgarigi zamonda shunday maqol bor edi: «Domlaning aytganini qil-u, qilganini qilma». Hozir bu maqol eskirdi: o'smir va o'spirinlar ko'pincha ustozlari va kattalarning tashqi yashash tarzidan o'rnak oladilar, ya'ni ular «domlaning qilganini... qilishadi».

Bu o‘rinda ularning quyidagi haqli e‘tirozlarini inobatga olish zarur.: «Nima uchun chekmagin, ichmagin deyishadi-yu, o‘zlari chekishadi, ichishadi?», «Nima uchun rost gapirgin deyдилar-u, o‘zlari yolg‘on so‘zlayдилar?», «Nima uchun to‘g‘ri, halol bo‘lish kerak deyдилar-u, o‘zlari pora oladilar?». Agar o‘qituvchi va boshqa ana shunday so‘zda to‘g‘ri-yu, amalda noto‘g‘ri ish tutishsa, shogirdlari qanday qilib uni hurmatlaydi? Undan nimani o‘rnak qilib oladilar? Shu ma’noda tarbiyachi har vaqt o‘z so‘ziga amal qilishi va so‘zining ustidan chiqishi kerak. Ibratning aynan ana shu jihati komil inson tarbiyasida katta ahamiyatga ega.

Bulardan tashqari Sharq mamlakatlarida axloq va ta’lim-tarbiyaga oid «Rushnoinoma», «Qobusnoma» Fariddin Attorning «Pandnoma»si, O‘bayd Zakoniyning «Sad pand» kabi asarlari keng tarqalgan. Ilk o‘rta asrlarda Arastu va uning izdoshlarining risolalari arab tiliga tarjima qilindi va ularning ta’limotlari Al-Kindiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy, Jomiy, Navoiy va boshqa Sharq faylasuflari tomonidan o‘rganildi va boyitildi.

Demak, bugungi yoshlarimizning kamoloti va unga mos dunyoqarashi muntazam ravishda takomillashib, rivojlanib borishida ibrat-namunaning o‘rni beqiyosdir. Bu o‘z navbatida Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot yaratuvchilarining ongli a‘zolarini tayyorlashni kafolotlaydi.

Tarbiya fanini o‘qitishda "Ishchanlik o‘yini" ssenariysidan foydalanish texnologiyasi

Ishchanlik o‘yini ssenariysi quyidagilardan iborat: faoliyat maqsadi; o‘yin vazifasi, o‘rganiladigan muammo tafsiloti; vaziyatning tafsiloti va ishtirok etuvchilarning tasnifi. O‘yinga kirishish quyidagilarni anglatadi:



– guruhni shakllantirish;

– mashg‘ulotlarning bosh maqsadini ifodalash;

– muammo va vaziyatni vujudga keltirish;

– rollarni taqsimlash;

– o‘yin reglamentini o‘rnatish;

– materiallar, yo‘riqnomalar, qoidalar va ko‘rsatmalar to‘plamini tarqatish;

– maslahatlar berish.

Rollar qur’a tashlash yo‘li bilan taqsimlanadi. Reglamentga, muloqot etikasiga, faollikni namoyish etishga va o‘yinning oxirigacha ishtirok etilishiga alohida e‘tibor qaratiladi.

“Qanday?” diagrammasi

Quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich bo‘ysunuvchi “Qanday?” diagrammasi

Muammo to'g'risida umumiy tasavvurlarni olish imkonini beruvchi, mantiqiy savollar zanjiri.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Kichik guruhlariga birlashadilar, taqqoslaydilar, o'zlarining chizmlarini to'ldiradilar. Umumiy chizmaga keltiradilar.

Diagrammani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida/kichik guruhlarda diagrammani tuzadilar.

Ish natijalarining taqdimoti.

3-Mavzu: Akademik litseylarda tarbiyaviy ishlarning zamonaviy shakl va metodlari (2 soat amaliy)

REJA:

1. Loyiha va ijtimoiy tashabbuslar, servis learning (ijtimoiy xizmat orqali o'qitish), mentorlik, kouching, debatlar va reflektiv mashg'ulotlar orqali tarbiyaviy kompetensiyalarni rivojlantirish.

2. Tarbiya jarayonida o'quvchi faolligini oshirishga qaratilgan interaktiv metodlar.

3. Tarbiya tizimini rivojlantirishda kompetensiyaviy va qadriyatli yondashuvlarning nazariy-pedagogik asoslari.

4. Tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaga asoslangan va aksiologik (qadriyatlar tizimi) yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi.

5. Akademik litsey ta'lim muhitida tarbiyaviy faoliyatning maqsad va vazifalari.

«Qanday?» diagrammasini qurish qoidalari.

1. Ko'pgina hollarda muammoni yechishda "nima qilish kerak"ligi to'g'risida o'ylanib qolmasligingiz kerak. Asosan muammo, uni yechishda "buni qanday qilish kerak?", "qanday"asosiy savollar yuzaga kelishidan iborat bo'ladi.

"Qanday" savollarining izchil berilishi quyidagilar imkonini beradi:

muammoni yechish nafaqat bor imkoniyatlarni, balki ularni amalga oshirish yo'llarini ham tadqiq qilish;

quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich bo'ysunadigan g'oyalar tuzilmasini aniqlaydilar.

Diagramma strategik darajadagi savollar bilan ishlashni boshlaydi. Muammoni yechishning pastki darajasi birinchi galdagi harakatlarning ro'yxatiga mos keladi.

1. Barcha g'oyalarni o'ylab o'tirmasdan, baholamasdan va taqqoslamasdan tezlikda yozish kerak;

Diagramma hech qachon tugallangan bo'lmaydi: unga yangi g'oyalarni kiritish mumkin;

Agarda chizmada savol uning "shoxlarida" bir necha bor qaytarilsa, unda u biror muhimlikni anglatadi. U muammoni yechishning asosiysi bo'lishi mumkin;

Yangi g'oyalarni grafik ko'rinishda: daraxt yoki kaskad ko'rinishidami, yuqoridan pastgami yoki chapdan o'ngda qayd qilinishini o'zingiz hal etasiz;

Agarda siz o'zingizga to'g'ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo'nalishini namoyon bo'lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma, siz har qanday muammoni amaliy jihatdan yechimini topishingizni kafolatlaydi

Pedagoglarda innovatsion yondashuvning qaror topishi bosqichlarining mos raqamlarini yozing.

Bosqichlar	Raqamlar
Pedagog o'qitish va tarbiyalashga oid o'z konsepsiyasi yoki metodikasini yaratadi	
Yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlarini tizimlashtiradi	
Mavjud tizimga yangi g'oyalarni, metodlarni kiritadi	
Tayyor metodik tavsiyanoma (mavjud innovatsiya)lardan foydalaniladi	

Ta'lim innovatsiyalari turlariga mos keladigan innovatsiya turlarini yozing: 1) faoliyat yo'nalishiga ko'ra; 2) kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra; 3) o'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra; 4) kelib chiqish manbaiga ko'ra.

Jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar	Radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan innovatsiyalar	Pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar	Tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari

GLOSSARIY

Axloq normasi – kishilarning xulq, fe'l-atvorlarini tartibga soluvchi axloqiy talablar mezonidir.

Axloqiy tarbiya - O'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy ma'naviy-axloqiy bilimlar negizida ijtimoiy faoliyatni tashkil etish borasida ko'nikma va malakalarni hosil qilish, axloqiy sifatlarni qaror toptirishga yo'naltirilgan murakkab dinamik jarayon.

Avtoritar texnologiya – o'quv jarayonda pedago yagonasub'ekt sifatida namoyon bo'ladi, talabalar esa faqatgina «ob'ekt» vazifasini bajaradi.

Adaptatsiya– ta'lim jarayonini o'quvchi shaxsiga, turar joyi sharoiti, moliyaviy sharoiti, psixologik va fiziologik xususiyatlariga moslashtirish.

Agreement– talaba bilan ikala oliy ta'lim muassasining ECTS koordinatalari orasida tayyorlash mazmuni, o'qish tartibi va muddatlari, attestatsiya tadbirlari, o'quv rejalaridagi farqni bartaraf etish tartiblari haqida o'zaro kelishuvlarini anglatadi.

Bakalavriat– o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi negizida oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha fundamental bilimlar beradigan, o'qish muddati to'rt yildan kam bo'lmagan tanyach oliy ta'lim.

Baholash – o'rganilgan materialni konkret maqsad uchun baholash ko'nikmasini anglatadi.

Bilim – bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi ularning ichki zaruriyatidan kelib chiqqan bog'liqlikdir. Bilim kishidan kishiga ma'lumot (axborot) orqali o'tadi.

Bilish – o'rganilgan materialni konkret faktordan boshlab butun bir nazariyagacha esda saqlash va qayta tiklashni anglatadi.

Boshqarish – jarayonni rejalashtirilgan maromda amalga oshirish, o'qitish maqsadlariga erishish dasturini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladi.

Davlat ta'lim standartlari – me'yoriy hujjat bo'lib, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Dastur – o'quv predmetining mazmuni, uni tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, tartibi, axborot manbalarini o'zida mujassamlashtiruvchi me'yoriy hujjatdir.

Didaktika – grekcha didaskien so'zidan olingan bo'lib, o'qitaman, o'qishni o'rgataman ma'nolarini anglatadi. Didaktika – bu o'qitish nazariyasidir. Didaktika o'qitish jarayonining shakllari, metodlari, tamoyillari, mazmuni, vazifasi va maqsadlarini ishlab chiqadi.

Identifikatsiyalangan o'quv maqsad – talabalar xatti-harakatlari orqali ifodalangan rejalashtirilgan o'quv natijalarini to'la tashxislash va o'qitishni qayta

takrorlanish imkoniyat yaratish uchun, o'quv maqsadlari shundan aniq qo'yilishi kerakki, unga erishilganligini ikkilanmasdan aniqlash mumkin bo'lsin.

Ijodiy izlanish – pedagog boshchiligida qo'yilgan muammolar, masalalarni echishning yo'llarini faol izlashni tashkil etish usuli, fikrlash jarayoni produktiv (unumli) xarakterga ega bo'ladi.

Imitatsion o'yinlar – bo'lim, sex, korxona tashkilotning faoliyati-imitatsiya qilinadi. Imitatsion o'yinlar ssenariyasi, hodisa syujetidan tashqari, imitatsiya qilinadigan jarayon va ob'ektlar tarkibi va ahamiyati haqidagi tavsilotlarni o'z ichiga oladi.

Individual yondashish – bu pedagogik tamoyilga ko'ra, pedagogik jarayonda pedagogning talabalar bilan o'zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida talabaning rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi.

Individual o'qitish – bu o'quv jarayonini tashkil etishning shakli bo'lib, bunda pedagog va talaba yakkama-yakka o'zaro ta'sir ko'rsatadilar, talaba o'quv vositalari (kitoblar, kompyuter va h.k) yordamida uzluksiz mustaqil ta'lim oladi.

Individuallashtirilgan o'qitish texnologiyasi – bunda o'quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish va o'qitishning individual shakli ustuvor hisoblanadi.

Individuallashtirilgan o'qitish – bunday o'quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o'qitish yo'llari, usullari, sur'ati tanlanadi va turli o'quv-uslubiy psixologik-pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali ta'minlanadi.

Ishlab chiqarish amaliyoti – kasbiy tayyorgarlikning yakuniy bosqichini tasvirlaydi va o'qitishning so'nggi oylarida o'tkaziladi.

Kompyuterlashtirilgan o'qitish texnologiyasi – bu kompyuterdan foydalanishga asoslangan o'qitishdir.

Kredit – (EuropeanCreditTransferSystem (ECTS) sinovdan o'tdi (zachyot), ma'lum bir kursni o'quv yurtida o'tganligi haqida guvohnoma ma'nosini anglatadi.

Qo'llash – o'rganilgan materialni konkret shartlarda va yangi vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini anglatadi.

Ko'nikma – biror shaxsning muayyan faoliyatini muvaffaqiyatli bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratib beruvchi, tashqaridan kuzatish mumkin bo'lgan harakatlari va reaksiyalari tushuniladi.

Malaka – ongli ravishda amalga oshirilgan faoliyatning tarkibiy qismiga kiruvchi avtomatik tarzda bajariladigan ko'nikmalar.

Masofaviy o'qitish – bu masofadan turib o'qitish, qaysiki o'quv mashg'ulotlarining barchasi yoki ko'p qismi telekommunikatsion va zamonaviy axborotlashtirish texnologiyalar asosida olib boriladi.

Metodologiya – metod va logiya iboralarining birligida bilim faoliyati usuli, tuzilishi vositalari va mantiqiy tartibiyi haqidagi ta’limot ma’nosini anglatadi.

Modul – bu fanning fundamental tushunchasini taqdim etadi: muayyan jarayoni yoki qonuni bo‘limi, muayyan katta mavzusi, o‘zaro bog‘liq tushunchalar guruhi.

Modulli o‘qitish – xalqaro tushuncha – modul bilan bog‘liq bo‘lib («modul», lotincha modulus), uning bitta ma’nosi faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chabarchas bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi.

Operatsion o‘yinlar – tegishli ish jarayoni, ularni bajarish shart-sharoitini modellashtiradilar. Ular ma’lum bir o‘ziga xos operatsiyalarni: - masalalar echish, ma’lum bir usulni o‘zlashtirishga yordam beradilar.

Pedagogik o‘yin – bu faoliyat turi vaziyatlar sharoitida, o‘qitishni aniq maqsad qilib qo‘ygan jamoatchilik tajribasini qayta tiklash va o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, o‘z-o‘zini boshqarishni takomillashtiradi va pedagogik natijalarni ro‘yobga chiqaradi.

Pedagogik taksonomiya – (grek so‘zlari «taxis» - tartib bilan joylashtirish va «nomos» - qonundan kelib chiqqan) – o‘quv maqsadlarining toifalarga va ketma-ketlik darajalarga tasniflab, o‘quv fani bo‘yicha maqsadlarining aniq tizimni tuzish.

Pedagogika – yunoncha so‘z bo‘lib, «bolani etaklash» ma’nosini bildiradi.

Pedagogik-texnologik xarita– pedagogik texnologiyaning qayta takrorlanadigan o‘qitish siklini tashkil etuvchi hujjatlaridan biridir.

Produktiv o‘zlashtirish darajasi – bunda o‘quvchi olgan bilimining noan’anaviy masalalarni echishda mustaqil fikr yuritishi talab qilinadi.

Psixodrama va sotsiodrama – bu rolli o‘yinga, ishbilarmonlik teatriga o‘xshagan bo‘lib, faqat bu erda sotsial-psixologik masalalar echiladi. Bunday masalalar jumlasiga jamoadagi vaziyatni his kila olish, boshqa kishini ruhiy holatini to‘g‘ri baholash va uni o‘zgartira olish, u bilan unumli muloqotga kira olish kiradi.

Reproduktiv – ushbu test topshiriqlarida sinalluvchidan oldin o‘rganilgan tartib asosida mustaqil ish bajarish talab etiladi. Ulardan oldingi yodlangan algoritmlar, qoidalarni eslash talab etiladi.

Rolli o‘yinlar – ma’lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatlari xatti-harakati ishlanadi, rollar majburiy mazmuni.

Sintez – elementlardan, bo‘limlardan yangilikka ega bo‘lgan yaxlitlikni yaratish ko‘nikmasini anglatadi.

Credits-host– universitetida (qabul qilgan universitet) muvaffaqiyatli o‘tilgan barcha fanlar Post-universitetda (talabani boshqa OTMga jo‘natgan universitet) hisobga olinishi zarur.

Barkamol shaxs – bu adolatli, vijdonli, iymon-e’tiqodli, mehr-muruvvatli, irodali, or-nomusli, matonatli va chidamli, erkin fikrlovchi, o‘z xalqining daholari

uchun kurashuvchi, hur fikrli va istiqlol g'oyalari bilan sug'orilgan, o'z Vataniga fidoyilik bilan xizmat qiluvchi, tadbirkor va tashabbuskor ozod ShAXSDIR.

Tarbiya – inson shaxsi ma'naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan say – harakatlar tizimidir. Tarbiya – keng ma'noda u yoki bu sifatlarning yoki ijtimoiy guruhlarining maqsadlariga muvofiq odamlarning yangi avlodlariga avval avlodlarning ijtimoiy – tarixiy tajribasini uzatish vositasi bilan jamiyatning rivojlanishini ta'minlovchi vazifasi. Tarbiyalashning tor ma'nosi – ijtimoiy institutlar doirasida va ta'sirida ijtimoiy amaliyotning har bir doirasidagi hayotiy faoliyatiga, ijtimoiy vazifalarni va rollarni bajarishga tayyorlash maqsadida shaxsni ongli, maqsadga yo'naltirilgan, muntazam shakllantirish jarayoni.

Tarbiya vazifasi – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutilgan holda o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyaning qanday metodidan foydalanishga bog'liq.

Tarbiya jarayoni – tarbiya jarayonining mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini asta-sekin ko'nikmaga aylantirib borish lozim.

Tarbiya maqsadi – talaba-yoshlarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishda ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari qo'llaniladi.

Tarbiya metodlari – metod lotincha metodoc – yo'l so'zidan olingan. Metod tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida «metod» so'zi keng ma'noda muayyan maqsadga erishish yo'li tushuniladi.

Tabaqalashtirilgan o'qitish – o'quv jarayonini tashkil etishni bu shakli umumiy didaktika tizimiga asoslangan bo'lib, maxsus tashkil ettirilgan talabalarning gomogen guruhlarida, o'quv jarayonini maxsuslashtirishni ta'minlaydi.

Tahlil – bu toifa o'rganilgan material tarkibini bo'laklarga bo'lib, uning tuzilmasini yaqqol ko'rsatish ko'nikmalarini anglatadi.

Ta'lim axboroti – muayyan faoliyatturi, ixtisosini amalga oshirishda qo'llashi uchun, ta'lim oluvchiga berish kerak bo'lgan bilimdir.

Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikma hosil qilish jarayoni, kishini hayotga tayyorlashning asosiy vositasidir.

Ta'lim texnologiyasi – bu ta'limiy axborotlarni manbadan iste'molchiga uzatishda qo'llaniladigan didaktik uslublar majmuasidir.

Texnologiya – yunoncha so'z – «texno» - san'at va «logos» - o'rganish. Materiallar yoki yarim fabrikatlarni olish, ishlov berishi va qayta ishlash usullarini ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi ilmiyfandir.

Tushunish – uning ko'rsatkichi, materialni bir shakldan boshqa shaklga o'tkazilishi bo'lishi mumkin materialni intepretatsiyasi yoki hodisa va voqealarning kelajagini oqibatlar bashorat qilish.

Tushuntirish-ko‘rgazmali yondashuv – o‘qituvchilar mashg‘ulot davomida o‘quv uslubiy adabiyotlardagi ko‘rgazmali vositalar orqali «tayyor» holda bilim oladilar.

Transferancy– bu ECTS (EuropeanCreditTransferSystem) tizimiga xohlagan shaxs yoki tashkilotning to‘siqsiz kirishiga shart –sharoit yaratish.

O‘qitish metodlari – o‘qitish maqsadga erishish uchun, ta’lim oluvchilarning faoliyatini tashkil etish va boshqarish, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari haqida nazariy tushncha beruvchi didaktik kategoriya tushuniladi.

O‘rgatuvchi modul – o‘qitishning muayyan modul birligi bo‘yicha mazmuni, o‘quvchining o‘quv harakatlarini boshqarish tizimi, muayyan mazmun bo‘yicha bilimlar nazorati tizimi va uslubiy ishlanmalar mazmunidan iboratdir

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston.– T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2021. - 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. «Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan iqtiboslar». – T.: “Tasvir”, 2021. - 52 bet.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2023. - 536 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin, obod va farovon mamlakatni - Yangi O'zbekistonni barchamiz birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2023. - 368 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. 7-jild. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2023. - 392 b.

6. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2024. -344 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.

2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF 6097-sonli Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda “O'zbekiston - 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4860-sonli Qarori.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4910-son Qarori.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrda “Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” PQ-358-son Qarori.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi “Akademik liseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida” 296-son Qarori.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrda “Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus

rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 717-son Qarori.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-iyuldagi "2025-2026-yillarda sun'iy intellekt texnologiyalari sohasida ustuvor loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 425-son Qarori.

13. BMT. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi. 1948.

14. BMT. Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya.1989.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Zulunov R.M. Sun'iy intellekt texnologiyalari – T.: Classic, 2024.

2. Mo'minov B.B., Sun'iy intellekt (O'quv qo'llanma). – T., 2023.

3. Babaxodjaeva N.M. Sun'iy intellekt va neyron to'rli texnologiyalar. T., 2023.

4. Toirov S.S., Axmedov U.M. Axborot tizimlari va texnologiyalari (o'quv qo'llanma). – T.: Iqtisodiyot, 2020. – 240 b.

5. Abduraxmonov R.M. Pedagogik texnologiyalar va raqamli ta'lim muhitlari. – T.: Fan va texnologiya, 2021. – 200 b.

6. Muminova L.R, Nazarova D.A. Inklyuziv va maxsus ta'lim atamalarining izohli lug'ati. – T., 2021.

7. Nazarova D.A, Mamarajabova Z.N. Maxsus pedagogika (Surdopedagogika). -T.: Innovatsiya-ziyo, 2020.

8. Nazarova D.A. Inklyuziv madaniyatini shakllantirishda ta'lim klasteri sub'yektlarining o'rni. //Scientific aspects and trends in the field of scientific research. International scientific online conference.

9. Nazarova Dildora Asatovna. Issues of involving children with hearing in inclusive education.// European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE)Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No.12, December 2021,ISSN: 2660-5643/ Page 149.

10. Butterworth, J., & Mitchell, D. (2013). Inclusive Education and its Social Benefits. London: Routledge. 77-80 betlar.

11 Florian, L., & Black-Hawkins, K. (2011). Exploring Inclusive Pedagogy. British Educational Research Journal. 28-b.

12. Nazarova, D. A. (2020). "Aspects of Orientation of Students of the Professional Development Courses in the Direction 'Managers of Educational Institutions' to the Effective Organization of Inclusive Education."European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(8), 7-12.

13.“Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent shahri. 2021-yil 26-mart.- 335 b.

14 G. B. Saidnazarova Tarbiya fanini o'qitish metodikasi bo'yicha o'quv qo'llanma. – Buxoro: “Kamolot”, 2024.

15. Olimov Sh.Sh. Pedagogik texnologiyalar. - T.: “Universitet”, 2020. – 172-177 b.

16. Xodjayev B., Sattorov Sh., Artikova M. Tarbiya fanini o'qitish texnologiyalari. -T.: Respublika ta'lim markazi, 2021.

17. M.To'xliyev, A.Tilavov. Tarbiya kitobi. "Yurist - media markazi". 2017.

18. Xalikov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. – T.: Iqtisod moliya, 2012.

IV. Elektron ta'lim resurslari

1. <http://natlib.uz>

2. <http://yedu.uz>

3. <http://lex.uz>

4. <http://lib.bimm.uz>

5. <http://ziyonet.uz>